

TA'LIM TEKNOLOGIYALARI VA UNING AHAMIYATI

Abdullayeva Rayxon Atanazarovna

Urganch davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta'lim va tabiiy fanlar”

kafedrasи dotsent v.b.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari, turlari, ularning zamonaviy o'qitish jarayonidagi o'rni hamda ta'lim sifatiga ta'siri o'rganilgan. Muallif tomonidan O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar kontekstida ilg'or pedagogik texnologiyalarining joriy etilishi va ularning ijtimoiy, intellektual hamda madaniy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada xalqaro tajriba asosida ta'lim texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy takliflar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, AKT, pedagogik innovatsiyalar, o'qitish sisfati, zamonaviy yondashuvlar.

Bugungi globallashgan jamiyatda inson kapitali, uning bilim, ko'nikma va kompetensiyalar darajasi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni, innovatsion metodlar va texnologiyalarini joriy etishni taqozo qilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning markazida aynan ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalasi turadi.

Ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini tashkil etishda samaradorlik, tizimlilik, shaxsga yo'naltirilganlik va natijaviylik mezonlari asosida ishslash imkonini beradi. Mazkur maqolada ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari, amaliy jihatlari va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

“Texnologiya” so'zi yunoncha “techne” (mahorat, san'at) va “logos” (ta'lilot) so'zlaridan olingan bo'lib, biror faoliyatni oqilona tashkil etish vositalarini anglatadi. Pedagogikada “ta'lim texnologiyasi” deganda o'qitish jarayonini samarali tashkil etish uchun qo'llaniladigan ilmiy asoslangan metodlar,





vositalar va strategiyalar yig‘indisi tushuniladi. Ta’lim texnologiyasiga har xil mualliflar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan:

Yu.K.Babanskiy fikricha “Pedagogik texnologiya — bu o‘qituvchining faoliyati bo‘lib, u maqsadga yo‘naltirilgan tizimni yaratishga xizmat qiladi.”

P.I.Pidkasistiy fikricha “Ta’lim texnologiyasi — bu pedagogik maqsadlarga erishishning tizimli yo‘li.” Deb ta’rif berilgan. Bu ta’riflar ta’lim texnologiyasining tizimlilik, rejalashtirish va natijaviylik kabi muhim xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Interfaol texnologiyalar – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqotga asoslangan metodlar bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muhokama yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

AKT vositalari – bu kompyuterlar, interaktiv doskalar, internet, mobil ilovalar, sun’iy intellekt kabi zamonaviy vositalardir. Bu texnologiyalar quyidagilarga imkon beradi:

Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda muammoni aniqlaydi, izlanadi va yechim ishlab chiqadi. Bu esa ularda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar individual yondashuvni ta’minlab, har bir o‘qituvchining ehtiyojlariga mos ta’lim olishiga imkon yaratadi.

Ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida darslar qiziqarli, jonli va interaktiv shaklga kiradi. Bu o‘quvchilarda ta’limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. O‘qituvchilar uchun esa darslarni rejalashtirish, baholash, dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta’lim texnologiyalari o‘qitish xarajatlarini kamaytiradi. Ishbilarmonlik va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim strategiyasi”, “Ta’lim sifatini oshirish” bo‘yicha qarorlarida pedagogik texnologiyalar asosiy e’tiborda.



Yuqoridagilar kelib chiqqan holda zamonaviy ta'lim texnologiyalari – bu o‘quv jarayonini yangilovchi, sifatli bilim berishni ta’minlovchi, shaxsni rivojlantiruvchi kuchli vositadir. Bu texnologiyalar orqali ta'lim shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv va natijaga yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘ladi. O‘zbekiston ta'lim tizimida bu borada muhim islohotlar amalga oshirilmoqda, biroq tizimli yondashuv, pedagoglarni tayyorlash va infratuzilmani yaxshilash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A.A.Azizzxo‘jayev Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi. (2010).
2. B.Toshxo‘jayev Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Ilm ziyo nuri. (2021).
3. M.Qosimov, D.Raxmatova “Interfaol usullarning samaradorligi”, Ta'lim innovatsiyalari jurnali, №1. (2023).